

Muhammad Rizo Ogahiy hazratlarining qalamiga mansub "Ashori forsiy manzumalar turkumi muborak ananalar asosida bitilgan, mohiyatan tasavvufiy shariyatning ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ohanglarda ijod etilganidir:

Yo rab, sening tufaylidir martaba, ashku ohimiz,
Sen aybimizni ayla avf, kechir bizim gunohimiz.

Shoirning "Taviz-ul-oshiqin devonining tarkibiy juzvi bo'lmish "Ashori forsiy turkumining dastlabki g'azali mana shunday matla bilan boshlanadi. Ushbu misralardan ayon bo'ladiki, shoir qalamga olgan mavzularning mavzui, insonni kamolotga sazovor qiladigan fazilatlarining manbai, unga barcha nematlarni turli vositalar orqali tuhfa etguvchi Allohdir. Modomiki, bizning bir-birimizga qilgan ezguliklarimizni yuzimizga solib, tana qilishga haqimiz yo'q, bilaks, bu ezguliklarga bizni sazovor etishga vositachi qilib tanlaganligi uchun, avvalo, Allohdan, qolaversa, bir-birlarimizdan minnatdor bo'lmog'imiz, minnatdorligimizning mantiqiy natijasi o'laroq, shukronalik tarzida, mazkur yaxshiliklarimizni yana ham ziyoda qilib hamda mustahkamlab bormog'imiz kerak bo'ladi.

Ogahiyning talqinicha, bundan boshqa yo'l tanazzulga mahkumdur, gumrohlikka eltguvchidir. Shuning uchun ham har bir odam faqat mana shu yo'lni izlamog'i, mana shu yo'ldan yurmog'i kerakdir.

Sargashtamiz biz bir umr ayrilig'ingda dasht aro,
Qil iltifot, ko'yinga eltsin bizi rost rohimiz.

Yuqoridagi misralardan tag'in ayon bo'ladiki, bu "rost rohga, yani to'g'ri yo'lga musharraf bo'lishning birdan-bir iloji - tinimsiz riyozatdir. Modomiki, shoir "Sargashtadirmiz bir umr ayrilig'ingda deb yozayotgan ekan, demak, bu to'g'ri yo'lga mutlaq tushib olish nihoyatda mushkul, shuningdek, lozim bo'lgan fazilatlarining fazilatidir. Shoir fikricha, bu muvaffaqiyatga bir umr to'g'ri izlanish tufayligina erishiladi.

Navbatdagi bayt ham marifatga, yani ilohiy yog'duni ko'ngil ko'zi bilan ilg'ash tufayli erishiladigan manaviy jamolga bag'ishlangandir:

G'am tunida qolib keturmiz, oh, biz saharisifat,
Qorong'udan forig' etib, yorut, ki, subhgohimiz.

Marifattalab har bir inson uchun eng qo'rqinchli hol bu - jaholat zulmatiga tutqun bo'lib qolishdir. Shuning uchun ham, ushbu baytda lirik qahramon Allohdan yorug'lik iltijo qiladi. Bu baytda qorong'ilikdan ozurdalik bilan yorug'lik umidi bir-biriga uyg'un bo'lib ketganki, Ogahiy bobomizning mana shu ziddiyatli holatni ifoda etishi o'quvchida hamfikrlik kayfiyatini uyg'otadi. Negaki, har bir odamning hayotida ham surur va g'am, umid va umidsizlik tuyg'ulari aksar yonma-yon keladi va har bir odam o'z ishonchu etiqodiga munosib ravishda salbiy holatlardan xalos bo'lib, yutuqlarga vosil bo'lmoq umidida yashaydi.

Insonda anduhlarni bartaraf qilish niyatida chekilgan mashaqqatlar tufayli shodliklarga erishuv umidi ustuvor bo'lmog'i, g'amni shodlikka aylantirish yo'lida u qattiq kurashlar olib bormog'i va g'alabaga erishmog'i joiz.

Qaqrasa jismu jonimiz goh oh samumi birlakim,
Iliq bulutlaring bilan ko'kart bizim giyohimiz.

Mana shu bayt yuqoridagi fikrimizga dalildir. Bu dalolat, umuman, Ogahiy shariyatining optimistik yo'nalishini belgilaydigan fazilatlarandir. Shunisi etiborga molikki, bordiyu Ogahiy lirik qahramonining, g'azalda takidlanganidek, "Goh oh samumi birla jismu joni qaqrab, "Iliq bulutlari ila giyohi ko'karmagan taqdirda ham, Yaratganga noshukr bo'lishga haqi yo'q. Bordiyu yaratganning ravo ko'rgan jabri bilan unga bu jahon tor kelgan taqdirda ham, uning lutfi tufayli u inoyatdan umidvor bo'lavermog'i lozim. Bunday taqdirda, shoirning takidlashicha, banda:

Bosh olibon charx javridan qochib chiqib ketar esak,
Ko'lankang, oh, bo'lur bizim boshimiz panohimiz -

deb shukr qilmog'i lozim. Chunki Haqning inoyatlari, g'azalda takidlanayotganidek, samoning cheksizligi yanglig' behududdir. Muhammad Rizo Ogahiy inson hayotda yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan nuqsonlardan forig' bo'lishning imkonini ibodatda ko'radi. U yozadi:

Yo'lingga boshimiz qo'yib, sajda qilish bilan sango,
Shoistai sujuding, o, bo'lsak edi, ilohimiz.

Misralardan anglashilayotganidek, gap faqat sajdada emas, balki "Shoistai sujudga, yani sajdaga noil bo'la bilishda hamdir. Shoirning uqtirishicha, sajdaga yetib borguncha mavjud yo'lni bosib o'tish ham insondan o'ziga yarasha fazilatlarini talab qiladi. Shu o'rinda hadisi shariflardan bittasi yodga tushadi. Bir kuni Alloh Rasuli Muhammad (s.a.v.) aytgan ekanlarki, "Yaxshi amallaringiz bo'lmasa, faqatgina ibodatlariniz bilan jannatga kira olmaysizlar!", "Siz hammi, yo Rasululloh? deb so'rashibdi undan. "Ha, men ham! javob beribdi Muhammad (s.a.v.). Albatta, bu hadisi sharif ibodatning ahamiyatini pasaytirmaydi, balki yaxshi amallarning naqadar muborak ekanligini takidlaydi. Demak, ilohiy amallar dunyoviy amallar bilan mustahkamlangandagina

savobli samaralar beradi. Shuning uchun ham:

Ham boshimiz bilan yurib, yo'lingga tushsak erdi bir,
Samodan ham baland bo'lur edi bizim kulohimiz.

Malumki, "ham bosh va darveshlik kulohi Haq subhonahu va taologa etiqod tufayli erishiladigan faqrlik darajasi. Biroq bu masnadning, shoir talqinicha, "samodan ham baland bo'lishi alohida diqqatga sazovordir.

Qulligimiz qabul esa gar eshigingda nogahon,
Qaydaki baxt, baridan ham baland bo'lurdi johimiz.

Ogahiy hazratlari qullik tuzumi mavjud bo'lgan zamonda yashadi. Garchi bu davrda jamiyat qullikni hali ochiqdan-ochiq inkor qilishgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, xalq o'rtasida bu mudhish illatdan qutulish haqidagi fikrlar ochiq-oydin tilga olinayotgan, hatto odamlardagi bu tabiiy istakni bahona qilib, birmuncha taraqqiy topgan davlatlar qoloq mamlakatlarga qo'shin torta boshlagan vaqtlar edi. Ogahiyning mazkur baytida ham ana shunday zaminiy isyonning sadolarini ko'rish mumkin. Yani Allohga qullikdan boshqa qullik rag'batlantiriladigan jihat emas. Shuning uchun ham, inqirozga mahkumdur. Yana shunisi ham borki, bunday ruhiy-manaviy mashaqqatlarni boshidan kechirgan odamning jismoniy jihatdan ham dardmand bo'lishi tabiiydir. Ogahiyning misralariga qaraganda, ul zoti sharif ham ("Qarilig' dardidan aftoda bo'lgan Ogahingdurman) jismoniy dardlardan ozor chekib yashagan ko'rinadi va bu holni shoir o'zining manaviy rioyozatlari bilan bog'laydi:

Ogahiydek g'aming aro bo'libmiz ojizing sening,
Egik qadu sariq yuzi erur bunga guvohimiz.

Sharq donishmandlaridan biri aytganidek, ikki dunyo, aslida, bir o'rilgan kokil yanglig' chambarchasdir. Aytmoqchimizki, sheriyaatimizdagi, xususan, tasavvuf sheriyaatidagi "dudamalik, qo'shtig'likning mutlaqo mantiqiy asoslari bor. Bu, bir jihatdan, insonni o'limdan keyingi ikkinchi hayotga tayyorlab, xotirjam etsa, ikkinchi tarafdan, jahonning muamolarini ham ana shu asnoda bartaraf qilishni o'rgatadiki, bu saboq unga har qanday vaziyatda ham asqotib turadi. Shunisi ham muhimdirki, shoirlarimiz o'zlarining qamrovli, ko'lamdor manzumalarida inson ruhiy hamda moddiy hayotining turli jihatlarini olib, poetik tahlildan o'tkazganlar, o'quvchini hayotning nihoyatda keng saltanatiga turli eshiklardan olib kirib, mazkur shukuhli mulkning bor murakkabligini uning ko'z oldida namoyon qilganlar, uni hayotga qomusiy bir tarzda tayyorlaganlar. Buni ular, albatta, epik janrlardagiga qaraganda tafovutli bir tarzda, sheriyaatning o'ziga xos badiiy imkoniyatlari darajasidan kelib chiqib amalga oshirganlar.

Chunonchi, yuqoridagi g'azal tahlilida Ogahiyning oddiy insonni tavba-tazarru, manaviy rioyozat, hayotning turli jihatlaridan kelib chiqib, yashash jarayonida orttirilgan ruhiy g'uborlardan ilohiy kayfiyat yordamida, marifat ohanglarida tarbiyalaganini ko'rsak, navbatdagi g'azalida bu tarbiyaning o'zgacha bir jihatini kuzatamiz.

Bu ohangda qalam surar ekan, Ogahiy hazratlari endi bir muncha, yaxshi manoda, "osmondan kelib ijod etadi. Odamni dabdabali illatlardan forig' qilish uchun, zaharni zahar kesadi deganlaridek, dabdabali ohanglarda navolar qiladi:

Ki ey, sendan bo'lib purzeb kuloh, iqbolu davlatlar,
Kuyingga bosh qo'yib topdi necha Xisravlar izzatlar.

Bu misralar bevosita ilohiy bir jamolga qaratilgan xitob bo'lsa hamki, shubhasiz, u bilvosita insonning idrokiga tasir qilish maqsadida bitilgan baytdir. Ogahiy bu baytda, xususan, o'z davrining xisravlariga muntazam bir shukronalik hamda ogohlik bilan hayot kechirishlari lozimligini uqtiradi.

Falak yuksakligidan, oftob o'z nuridan hayron,
Qo'yib ostonanga yuz, topdilar meroji rifatlar.

Alloh dargohi shu qadar kengki, uning ostonasiga nafaqat oftob, balki falakning o'zi bosh qo'yadi. Yuksak daraja topadi. Bu - buyuklikning chinakam o'lchovi, haqiqiy mezonidir. Modomiki shunday ekan, Xisravlarning kerilishiga o'rin qolmasligi kerak. Ular Allohning bir meyorda hayot kechirishlarini taminlash uchun yaratilgan bandalaridirlar.

Bo'lib oftob tojingga guhar, taxtingga Zuhro dur,
Bo'lib shohlar quling, orzu qilar qilmoqni xizmatlar.

Biz tovush tezligi deymiz, nur tezligi deymiz. Tovush tezligi falakdagi mayda bir jismlarning bir-birlariga to'qnashuvidan hosil bo'ladigan saslar surati. Nur tezligi bo'lsa falakning bag'rida, izmida bo'lmish jismlardan chiqayotgan yorug'likning tarqalish tezligi. Bu tezliklarning barchasi falakning o'zi ko'rsatayotgan tezliklar qoshida toshbaqa odimlaridan ham sanoqsiz karra ohistaroq bir siljishdir, xolos. Falakki Allohning xizmatiga shunday tezliklar bilan shoshilar ekan, bandalarining ham bir-birlarining xizmatlariga naqadar kamarbasta bo'lishlari lozimligini anglab olish qiyin emas. Negaki, insonning insonga xizmati insonning Yaratganga xizmati hamdir. Alloh iltifoti umid qilinadi, talab qilinmaydi. Bu haqiqatni biz quyidagi baytdan idrok qilishimiz mumkin:

This is not registered version of TotalDocConverter

Bo'lib afkandaing shohlar, kulohlar sharmisoringdir,
Bo'lib arzandaing Rumo, Sifohon topdi shavkatlar.
Topib lutfingda baxt shohlar, kulohlar furqating ichra,
Sening hukmingga erku, uzlatu, taqiqu, sunnatlar.

Shunisi diqqatga sazovorki, Ogahiyning lirik qahramoni haqiqiy saltanat egasining xizmatu madhida bo'lsa ham, o'zini hali Alloh ko'yiga bosh qo'ygan imtiyozli odam o'rnida ko'rmaydi. U o'zini kamtarin tutib, deydi:

Bu muztar oxiri bir kun qo'yar xoki ko'yingga bosh,
Duingni qilib haddan fuzun, kutgay ijobatlar.

Biroq umidini uzmaydi:

Ki ey xo'blar shahi, Ogahiyningni sarfarozi ayla,
G'amingdin qolmadi jismingda oning shavku quvvatlar.

Aslida, mana shu zohiriy quvvatsizlik - botiniy qudratdir. Ezgulikdan umidvorlik va bu yo'lda muttasil say-harakatda faoliyat ko'rsatish, ayon bo'ladiki, Ogahiyning ijoddan maqsadi, Allohdan umididir.